

**O'ZLASHMA SO'ZLAR BAZASINI YARATISH OMILLARI****Nurmurodov Dilshodbek Normurod o'g'li**

Buxoro davlat universitetining Pedagogika inistituti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6589187>

**ANNOTATSIYA.** Maqolada o'zlashma so'zlar haqida keng ma'lumotlar berilgan va ularning bazasini yaratish bosqichlari va yaratish dolzarbliги yoritilgan. O'zlashma so'zlar bazasini yaratish omillari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** O'zlashma so'zlar, neologizmlar, Python dasturlash tili, algoritm, kompyuter lingvistikasi.

Til eng buyuk qadriyatdir. Insoniyat bilan birga paydo bo'lgan til uning hayotida eng muhim rol o'ynab kelgan va bundan keyin ham o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Til, eng avvalo, inson va uning tafakkuri shakllanishidagi zaruriy shartlardan biridir. Aniq nutqning paydo bo'lishi insonning bilish, idrok qilish jarayonlarini tamoman o'zgartirib yubordi. Til tufayli inson tafakkuri boyidi, moddiy dunyodagi narsa va predmetlarni ong orqali idrok qilish, ular ustidan mulohaza yuritish, obyektiv borliqqa oid fikrlarini so'z bilan ifodalash imkoniga ega bo'ldi. Til ilk davrlardan boshlab hech bir narsa bilan tenglashtirib bo'lmaydigan vazifani, ya'ni inson tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish funksiyasini bajarib keldi. Til deganda ma'lum bir jamiyatning barcha a'zolari uchun avvaldan tayyor holda keltirilgan, ifodalash va boshqa maqsadlar uchun xizmat qiladigan birliklar va shu birliklarning o'zaro birikishi, bog'lanishini belgilovchi qonun-qoidalar yig'indisi tushuniladi. "Bugun O'zbekistonimiz „Milliy tiklanishdan – milliy yuklanish sari” degan bosh tamoyil asosida taraqqiyotning yangi, yanada yuksak bosqichiga ko'tarilmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar jarayonida davlat tilining hayotimizdagi o'rni va nufuzi oshib bormoqda. O'zbek tili siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy - ma'rifiy jabhalarda faol qo'llanib, xalqaro minbarlarda baralla yangramoqda. Xorijiy mamlakatlarda tilimizga e'tibor va uni o'rganishga qiziqish kuchaymoqda. Bugungi glaballahuv jarayonida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini ta'minlash, bu borada avvalo, o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi zarur. O'zbek tili leksikasining boyishida o'zlashma so'zlar bazasini yaratishning ahamiyati va bosqichlari. Chet tilidagi so'zlarning tilimizga kirib kelishi va ularning



ishlatilishi tilimizda ma'lum bir yangi so'zlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi va bu turdagi so'zlar guruhi o'zlashma so'zlar deyiladi. O'zbek tili leksikasi, ya'ni so'z boyligi bir qancha manbalar asosida boyib, rivojlanib boradi. Ularni, eng avvalo, ikkita katta guruhga ajratish mumkin:

1. Ichki manba - o'z ichki imkoniyatlari asosida boyish.
2. Tashqi manba - boshqa tillardan so'z olish asosida boyish.

O'zbek tili leksikasi tashqi manbalar asosida ham boyib bormoqda. Dunyoda boshqa tillardan so'z olmasdan faqat o'z ichki imkoniyatlari asosidagina rivojlanadigan birorta til yo'q. Bundan o'zbek tili ham mustasno emas. Faqat ma'lum zarurat tufayli yangi tushunchani ifodalovchi o'z tilimizning ichki imkoniyatlari asosida ifodalab bo'limgandagina tashqi manbalarga murojaat qilish foydalidir. Bobolarimiz Alisher Navoiy, Mahmud Koshg'ariy ham shunga da'vat qilgan. Keyingi davrlarda tilimizga Yevropa tillaridan bir qancha so'zlar yangi tushunchalar bilan birgalikda kirib keldi. Masalan, monitoring, diler, skaner, wi-fi, selfi, onlays, slayd, oflays, deblays, fake, animator, klon, tyutor kabi. Bularning hammasi o'zbek tili leksik imkoniyatlarini kengaytirib boyitmoqda. O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi, o'zbek xalqining o'z erkiga, ozodligiga erishishi esa bu jarayonni yanada tezlashtirdi, tilimizda yuzlab, minglab neologizmlar paydo bo'ldi. Xususan, iqtisodiyot, bank va kredit, diplomatiya kabi bank sohalarida yangidan yangi atamalar paydo bo'ldi. Bozor iqtisodiyoti, litsenziya, monitoring, debtor, kvota, menejer, menejment, brutto qarz, frank bozori kabi atamalar shular jumlasidandir. Barcha tillarning lug'at tarkibi taraqqiyotini belgilovchi qonuniyatlar ko'rildi: til va jamiyat, til va ong, til va tafakkur munosabatlarini lug'at tarkibiga ta'siri, buning lug'at tarkibida ma'lum o'zgarishlarga olib kelishi, lug'aviy birliklarning zamoniylik, tarixiylik, ekspressiv - stilistik jihatdan qatlamlanishi, ma'lum tematik va leksik -semantik guruhlarga uyushishi kabi jarayonlar barcha tillarga xosdir. Jamiyatda ijtimoiy tuzumning o'zgarishi fan va madaniyatning rivojlanishi, ilmiy - texnika taraqqiyotidagi yangiliklar u yoki bu tilning lug'aviy qatlamida ham o'z ifodasini topadi. Lug'aviy qatlam tilning boshqa sathlariga nisbatan tez o'zgarishga moyil bo'lgan struktural elementi sanaladi. Hayotda, ilm - fanda yuz beradigan voqeal-hodisalar, yangiliklar to'g'risidagi tushunchalarni ifodalovchi so'z va iboralar tilda to'xtovsiz ravishda shakllanib turadi. Yangi predmet va tushunchalarni til



birliklari yordamida ifodalashda jamiyatning talabini qondirish uchun mavjud til materiallari negizida yangidan yangi so'zlar, iboralar yasaladi. Natijada tilda mavjud so'zlarning ma'nolari kengayadi, o'zgaradi, ijtimoiy-tarixiy sharoitlar talabi bilan bir tildan ikkinchi bir tilga so'zlar o'tadi va yangi lug'aviy qatlam vujudga kela boshlaydi. Tilda yangi lug'aviy qatlam - neologizmlar tashqi (ekstralivingistik) va ichki (lisoniy) omillar asosida vujudga keladi. Nolisoniy omillar (ekstralivingistik faktorlar) - til taraqqiyotiga (shu jumladan, leksik tizim rivojiga) tashqaridan ta'sir o'tkazuvchi omillar: ijtimoiy-siyosiy tizim, psixologiya, urf-odatlar, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, adabiyot, san'at va boshqalar. Masalan, matbuot sahifalarida boshqa tillardan o'zlashgan yangi so'zlar - neologizmlar juda keng qo'llanadi. Bu esa neologizm hosil qilishning ekstralivingistik omili sanaladi. Mustaqillik davrida rasmiy ish qog'ozlarining davlat tilida yuritilishi juda ko'plab yangi o'zbekcha neologizmlarning hosil bo'lishiga olib keldi. Shu kungacha qo'llangan spravka, xarakteristika, akt, instruksiya, raport, protokol, kontrakt kabi so'zlarning yangi o'zbekcha muqobilari hosil qilindi: spravka - ma'lumotnama, xarakteristika - tavsiyanoma, tavsifnama; akt - dalolatnama, instruksiya - yo'riqnama, raport - bildirish, bildirishnama; protokol - bayonnama, majlis bayonnomasi; rezolyutsiya - munosabat belgisi, kontrakt - shartnama va hokazo. Hozirgi vaqtida mamlakatimizda bozor munosabatlarining vujudga kelishi, bank ishlarining taraqqiyoti bilan bog'liq holda german va roman tillaridan rus tili orqali o'zlashgan yangi so'zlar - neologizmlar bilan bir qatorda tilimizning ichki imkoniyatlari asosida hosil qilingan bir qancha neologizmlar ham keng qo'llana boshladi. Masalan: biznesmen - ishbilarmon, fermer - mulkdor, auditor - savdogar, auksion - ochiq savdo, aksiya - qimmatbaho qog'oz va boshqalar. Bunday neologizmlarning asosiy qismi ingliz tilidan o'zlashgandir. Aytish mumkinki o'zbek tili ham boshqa tillardan yangi so'zlar o'zlashtirishda yetakchi tillardan biri hisoblanadi. Tilimizda ba'zi o'zlashma so'zlar mavjudki ularni leksemasini ko'p bora eshitsakda ammo tushunchasini barchamiz ham birdek bilmaymiz. Chunki bunga sabab o'zlashma so'zlarning bir sohaga tegishli bo'limgani uchun va uning bazasi ishlab chiqilmaganli, kutubxonalarda qulay qo'llanmalarning yo'qligidir. Aynan shuning uchun ham o'zlashma so'zlar bazasini yaratish o'zbek tilida katta ahamiyatga ega. Bunday baza yaratish uchun biz eng avvalo, o'zlashma so'zlarni ma'no-mazmuniga asoslanib guruhlarga bo'lib chiqishimiz zarur.



O'zbek tilida neologizmlarning quyidagi ko'rinishlari mavjud: Ilmiy – ilm-fanda yaratilgan yangi termin yoki qoidalarga tasnif berish uchun yaratilgan so'zlar guruhi. Texnologik – yangi texnika va texnologiyaning paydo bo'lishi bilan iste'molga kiritilgan so'zlar jamlanmasi. Siyosiy – siyosatga va iqtisodga kiritilgan yangi termin va buyruqlarni ifodalashda keng qo'llaniladigan so'zlar. Keng tarqalgan, popular – ommaviy axborot vositalari orqali tarqalgan so'zlar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Python dasturidagi ko'plab operatorlar yordamida tilimizda mavjud bo'lgan, o'zlashma so'zlarni bazaga kiritib, uning borliqdagi tushunchasini tez va oson bilib olishimiz mumkin. Nasib qilsa yaqin kelajakda biz yoshlar tilimiz taraqqiyotini dasturlash texnologiyalari yordamida barqaror- lashtirishga va hali amalga oshirilmagan maqsadli va keng ko'lAMDAGI ishlarni amalga oshirishga, o'rganayotgan yangi bilimlarimiz va yuksak salohiyatimiz bilan o'z hissamizni qo'shamiz.

Ушбу мақолада ўқув луғатларининг умумий луғатлардан нафақат ҳажми, балки ундаги сўзларнинг танланиш мезонлари, луғат қисмларининг таркиби, жойлашуви – мегаструктураси билан ҳам фарқланиши, синоним ўқув луғатлар луғат мақоласи таркибидаги лексикографик пометалар (турли қисқартмалар, белгилар)га кам ўрин берилганлиги муҳокама қилинади.<sup>1</sup>

This article is dedicated to the research of Adjusted meanings of Moral-spiritual concept defining units in the Uzbek language. And also analyzed the semantic analysis of grammatical shape lexemes of specialized meaning and provide a corresponding recommendation for lexicographical practice in the Uzbek language is one of the actual challenges of linguistics as today's challenge.<sup>2</sup>

Корпус лингвистикасида семантик разметка, унинг теглар тизими, тег категориялари, семантик теглаш муаммолари, кўпмаънолилик ва омонимлик муаммосини ечиш масаласига оид қатор тадқиқотлар вужудга келган.<sup>3</sup>

<sup>1</sup> Гуландом Мирханова. (2022). СИНОНИМ СЎЗЛАР ЎҚУВ ЛУҒАТИНИНГ УМУМИЙ ТУЗИЛИШИ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, 1(2), 172–178. Retrieved from <http://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/90>

<sup>2</sup> Gulbahor, T. (2016). Adjusted Meanings of Moral-Spiritual Concept Defining Units. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 5(7), 40-45.

<sup>3</sup> Ахмедова, Д. (2020). Семантик разметка тизимида тег гурӯҳлари. *Oriental Art and Culture*, (III), 440-444.



The article discusses the research methods of Uzbek language syntax. In Uzbek linguistics, syntactic phenomena have been studied in detail since the 1930s, and several syntactic theories have emerged in this regard.<sup>4</sup>

The article examines the first dictionary in the Turkish language Mahmud Kashgaris "Devonu lugotit turk" in terms of a dictionary in accordance with the traditions of world lexicography and argues that it is the first appearance of modern complex dictionaries in the Turkish (Uzbek) language.<sup>5</sup>

Now studying scientific heritage, socio-political activities and acquaintance youth charity of our above-stated ancestors is considered one of the main urgent objectives of the modern intellectuals.<sup>6</sup>

This article covers the main place of small business and business in todays market economy. Including scientifically analyzed the development of small business and business, and the legal basis, at this time financially support small business and business, the latter is amended and the rules for this branch of national legislation are added.<sup>7</sup>

Мамлакатимиз тараққиётининг янги босқичида жамият ҳаётининг асосий негизи бўлмиш оилалар барқарор муҳитини мустаҳкамлаш ва бу масалаларда хотин-қизларнинг ўрни ва аҳамияти ошириш долзарб аҳамият касб этмоқда. Юртимиз аҳолисининг тенг ярмига яқинроғини ташкил этадиган хотин-қизлар жамиятнинг барча соҳаларида самарали фаолият юритмоқда.<sup>8</sup>

Badiiy adabiyotning qamrov darajasi keng sanaladi. Zero undagi janrlarning har biri insonning kamoloti uchun xizmat qiladi.<sup>9</sup>

<sup>4</sup> Ergashevna, Y. N. (2021). ON METHODS OF RESEARCH OF UZBEK LANGUAGE SYNTAX. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(11), 22-28.

<sup>5</sup> Bakhriddinova, B. M. (2020). "DEVONU LUGOTIT TURK" AS A FIRST VIEW OF MODERN COMPLEX EDUCATIONAL DICTIONARIES. *Theoretical & Applied Science*, (4), 981-985.

<sup>6</sup> Tolibjonovich, M. T. (2021). EASTERN RENAISSANCE AND ITS CULTURAL HERITAGE: THE VIEW OF FOREIGN RESEARCHERS. *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*, 2(05), 211-215.

<sup>7</sup> Tolibjonovich, Madumarov T., and Gulomjonov O. R. Ogli. "Lombard Microcredit Organization Its Concept and Its Importance Today." *JournalNX*, vol. 6, no. 10, 2020, pp. 109-111.

<sup>8</sup> Мадумарова Зиёдахон. (2022). ЯНГИЛАНАЁТГАН ЎЗБЕКИСТОНДА ГЕНДЕР МУАММОЛАРИНИ БАРТАРАФ ЭТИШДА АХЛОҚИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6569712>

<sup>9</sup> Oripova Kamola. (2022). O'ZBEK VA FRANSUZ TILLARIDAGI MAQOLLARDA JON KONSEPTINING IFODALANISHI. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, 1(3), 398–408. Retrieved from <http://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/209>



Ushbu maqolada vatanparvarlik va millatparvarlik kabi axloqiy tushunchalar, hamda ularning mazmun mohiyati Somerset Moem qalamiga mansub bo'lgan "Bo'ysunmagan" ("The Unconquered") deb nomlangan hikoyaning syujeti va bosh qahramonlarning xarakterini tahlil qilish orqali ochib beriladi<sup>10</sup>

The article examines the role of dictionaries and their content, and, in particular, defines the role of explanatory dictionaries, from their compilation to their semantic meaning. Examples of lexical units and their meanings are given. Attention is drawn to the structure of explanatory dictionaries as a constituent part of the dictionaries as a whole.<sup>11</sup>

In this article are given the importance, role, types of the family in modern society. Its development from ancient times till present is widely described in this article.<sup>12</sup>

The widespread introduction of new pedagogical technologies in teaching students of higher educational institutions and the effective use of innovative technologies are the main support for improving the quality of education.<sup>13</sup>

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Гуландом Мирханова. (2022). СИНОНИМ СЎЗЛАР ЎҚУВ ЛУФАТИНИНГ УМУМИЙ ТУЗИЛИШИ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, 1(2), 172–178. Retrieved from <http://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/90>
2. Gulbahor, T. (2016). Adjusted Meanings of Moral-Spiritual Concept Defining Units. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 5(7), 40-45.
3. Ахмедова, Д. (2020). Семантик разметка тизимида тег гурӯҳлари. *Oriental Art and Culture*, (III), 440-444.

<sup>10</sup> Pulatova Sabina. (2022). VATANPARVARLIK AXLOQNING ASOSIY TUSHUNCHALARIDAN BIRI SIFATIDA. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, 1(3), 357–368. Retrieved from <http://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/205>

<sup>11</sup> Bobomurodova, L. K. (2021). FEATURES OF THE COMPILATION OF MODERN EXPLANATORY DICTIONARIES.

<sup>12</sup> Nasriddinovich, A. A. (2020). THE FEATURES OF APPEARING FAMILY IN MODERN SOCIETY. *European science review*, (3-4), 69-72.

<sup>13</sup> Jamoliddinovich, U. B. (2022). FUNDAMENTALS OF EDUCATION QUALITY IN HIGHER EDUCATION. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* /ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(01), 149-151.



4. Ergashevna, Y. N. (2021). ON METHODS OF RESEARCH OF UZBEK LANGUAGE SYNTAX. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(11), 22-28.
5. Bakhridinova, B. M. (2020). "DEVONU LUGOTIT TURK" AS A FIRST VIEW OF MODERN COMPLEX EDUCATIONAL DICTIONARIES. *Theoretical & Applied Science*, (4), 981-985.
6. Tolibjonovich, M. T. (2021). EASTERN RENAISSANCE AND ITS CULTURAL HERITAGE: THE VIEW OF FOREIGN RESEARCHERS. *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*, 2(05), 211-215.
7. Tolibjonovich, Madumarov T., and Gulomjonov O. R. Ogli. "Lombard Microcredit Organization Its Concept and Its Importance Today." *JournalNX*, vol. 6, no. 10, 2020, pp. 109-111.
8. Мадумарова Зиёдахон. (2022). ЯНГИЛАНАЁТГАН ЎЗБЕКИСТОНДА ГЕНДЕР МУАММОЛАРИНИ БАРТАРАФ ЭТИШДА АХЛОҚИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6569712>
9. Oripova Kamola. (2022). O'ZBEK VA FRANSUZ TILLARIDAGI MAQOLLARDA JON KONSEPTINING IFODALANISHI. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, 1(3), 398–408. Retrieved from <http://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/209>
10. Pulatova Sabina. (2022). VATANPARVARLIK AXLOQNING ASOSIY TUSHUNCHALARIDAN BIRI SIFATIDA. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, 1(3), 357–368. Retrieved from <http://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/205>
11. Bobomurodova, L. K. (2021). FEATURES OF THE COMPILATION OF MODERN EXPLANATORY DICTIONARIES.
12. Nasriddinovich, A. A. (2020). THE FEATURES OF APPEARING FAMILY IN MODERN SOCIETY. *European science review*, (3-4), 69-72.
13. Jamoliddinovich, U. B. (2022). FUNDAMENTALS OF EDUCATION QUALITY IN HIGHER EDUCATION. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(01), 149-151.